


X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2025- yil 1-yanvar holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 37 798 tani tashkil qildi. (2024- yil 1- yanvarga nisbatan 104,9 % ga ko‘pdir).

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
2025- yil 1- yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat
turlari bo‘yicha taqsimlanishi



■ Sanoat ■ Savdo ■ Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ■ Qurilish ■ Boshqalar


Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 33,2 %), sanoat sohasida (19,7 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (8,1 %) va qurilishda (6,4 %) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar- dekabr
Viloyat bo'yicha jami	4 636	3 929
Namangan shahar	1211	1209
Mingbuloq	322	278
Kosonsoy	261	276
Namangan	242	159
Norin	247	211
Pop	312	305
To'raqo'rg'on	370	192
Uychi	283	189
Uchqo'rg'on	449	304
Chortoq	377	245
Chust	331	297
Yangiqo'rg'on	231	269

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 1209 ta, Pop tumani – 305 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 304 ta, Chust tumani – 297 ta, Mingbuloq tumanida – 278 ta, Kosonsoy tumanida – 276 ta, Yangiqo'rg'on, tumanida – 269 ta, Chortoq tumanida – 245 ta, Norin, tumanida – 211 ta, bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. To'raqo'rg'on, tumanida – 192 ta, Uychi tumani – 189 ta, Eng past ko'rsatkich Namangan tumanida 159 tani tashkil etdi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da




2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 30,6 %, Pop tumanida – 7,8 %, Uchqo'rg'on tumanida – 7,7 %, Chust tumanida – 7,6 % Mingbuloq tumanida – 7,1 % Kosonsoy tumanida – 7,0 %, Yangiqo'rg'on tumanida – 6,8 %, Chortoq tumanida – 6,2 %, Norin tumanida – 5,4 %, va tashkil etdi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 73,4 % (2023- yil yanvar- dekabr oylarida 74,3 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 294,2 mln AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 49,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 503,8 mln AQSH dollari (umumiy import hajmining 67,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
iqtisodiyotdagi ulushi**
(2024- yil yanvar-dekabr oylari holatiga, % da)



Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi
(2024- yil yanvar-dekabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd soʻm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	33 338,7	103,2
Sanoat	15 970,3	108,3
Qurilish	11 754,1	112,1
Chakana savdo	23 266,9	108,6
Yuk tashish, mln tonna	35,2	114,3
Yoʻlovchi tashish, mln kishi	455,4	101,9

**2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(%da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
Viloyat bo'yicha jami	50,0	92,2	75,6	82,1
Namangan shahar	60,3	87,4	49,4	86,9
Mingbuloq	40,2	97,8	84,1	34,0
Kosonsoy	46,3	96,3	82,3	90,6
Namangan tuman	81,1	89,6	85,0	56,1
Norin	99,9	97,6	82,7	71,8
Pop	78,2	45,7	72,6	89,9
To'raqo'rg'on	7,6	94,2	76,0	62,8
Uychi	70,2	98,2	81,3	93,0
Uchqo'rg'on	41,9	90,7	79,7	88,3
Chortoq	43,3	97,8	78,9	81,4
Chust	25,4	97,8	78,2	77,5
Yangiqo'rg'on	99,9	96,7	85,2	88,1

Hududlar bo'yicha Sanoat sohasining yuqori ulushini Yangiqo'rg'on, (99,9 %) Norin tumanlari (99,9 %) hamda Namangan (81,1 %) Pop (78,2 %) tumanlari tashkil etdi.

Qurilishda – Uychi, (98,2 %) Mingbuloq t (97,8 %) Chust t (97,8 %) Chortoq (97,8 %) tumanlari tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida –Yangiqo'rg'on t (85,2 %), Namangan t (85,0 %),Mingbuloq t (84,1 %), Norin (82,7 %), tumanlari tashkil etdi.

Investitsiyada – Uychi t (93,0 %), Kosonsoy t (90,6 %), Pop t (89,9 %) Chortoq t (90,5 %), Uchqo'rg'on t (88,3 %), Yangiqo'rg'on t (88,1 %), tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.